

HAYVONLAR BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MAQOLLAR TARJIMASINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILIDA)

Olimova Madinanur Jahongir qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Tarjimashunoslik (xitoy, ingliz tili) yo'nalishi

4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Xamidova Mohinaxon Alisherovna

"Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillaridagi hayvonlar bilan bog'liq maqollarning tarjima jarayonini qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqollar til va madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, ko'pincha muayyan xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi va urf-odatlarini aks ettiradi. Hayvonlar obrazi ko'plab tillarda keng tarqalgan bo'lib, ularning o'ziga xos xususiyatlari ko'pincha metaforik ma'nolarda ishlatiladi. Shu sababli, hayvonlar bilan bog'liq maqollarni boshqa tillarga tarjima qilishda lingvistik va madaniy qiyinchiliklar yuzaga keladi. Maqolaning asosiy maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi mazkur maqollarning tarjima variantlarini aniqlash va ularni lingvistik hamda madaniy jihatdan tahlil qilishdan iborat.*

Kalit so'zlar: *maqol, hayvonlar, ekvivalent, madaniy kontekst, tarjima.*

Abstract. *This article is dedicated to the comparative analysis of the translation process of proverbs related to animals in Uzbek and English. Proverbs are an integral part of language and culture, often reflecting a nation's worldview, lifestyle, and traditions. Images of animals are widespread in many languages, and their specific characteristics are frequently used in metaphorical meanings. Therefore, translating animal-related proverbs*

into other languages often presents linguistic and cultural challenges. The main purpose of the article is to identify translation variants of these proverbs in Uzbek and English and to analyze them from linguistic and cultural perspectives.

Keywords: proverb, animals, equivalent, cultural context, translation.

Аннотация. Данная статья посвящена сравнительному анализу процесса перевода пословиц, связанных с животными, в узбекском и английском языках. Пословицы являются неотъемлемой частью языка и культуры, часто отражая мировоззрение, образ жизни и традиции определённого народа. Образы животных широко распространены во многих языках, и их особенности нередко используются в метафорическом значении. Поэтому при переводе пословиц, связанных с животными, на другие языки возникают лингвистические и культурные трудности. Основная цель статьи — определить варианты перевода данных пословиц в узбекском и английском языках и провести их лингвистический и культурный анализ.

Ключевые слова: пословица, животные, эквивалент, культурный контекст, перевод.

KIRISH.

Maqol — xalq ogʻzaki ijodi janri; qisqa va loʻnda, obrazli va obrabsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan maʼnoli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuygʻulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. [6]

Xalq oʻzining hayoti va tajribasidan olgan xulosalarini, falsafiy muloxazalarini maqollar orqali ifodalagan. Oʻzbek maqollar mavzusi jihatdan xilma-xil va rang-barangdir. Maqolga asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini taʼminlash uchun undan foydalanish undan foydalanish soʻz sanʼatkorlarning markazida boʻlgan. Yusuf Xos Hojib,

Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ular tarkibida qanchadan maqollar ba'zan o'zgargan holda mavjudligini ko'ramiz. Ayni choqda ular yaratilishi jihatdan juda qadimiy zamonlarda yashagan ajdodlarimiz ijodini tashkil etadi. Maxmud Koshg'ariy o'zining "Devoni lug'otit turk"da uch yuzga yaqin xalq maqollari berilganki, turkiy xalqlarning madaniy merosiga voris sifatida har bir o'zbek ular bilan faxrlansa arziydi. [1, 274-b.]

Hozirgi zamon tilshunosligida, shu jumladan qiyosiy tilshunoslikda va folklorshunoslikda maqollarni chuqurroq o'rganish bugungi kun qiyosiy tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning muhim xususiyati shundaki, u fanlararo xarakterga ega bo'lib, ilm-fanning har bir sohasida tadqiq etilmoqda. Natijada paremiologiya, ya'ni maqollarni o'rganish tilshunoslikda alohida soha sifatida paydo bo'ldi. [2, 5-b.]

Qadim-qadimdan hayvonlar insoniyat hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Ular nafaqat tabiatning bir bo'lagi, balki insonning kundalik turmushida, e'tiqodlarida, adabiyotida va ayniqsa, tilida chuqur iz qoldirgan jonivorlardir. Hayvonlarning xulq-atvori, ko'rinishi va yashash tarzi insonlarga doim ibrat, ilhom yoki ogohlantirish manbai bo'lib xizmat qilgan. Bu kuzatuvlar asrlar davomida xalq donoligi – maqollar shaklida avloddan avlodga o'tib kelgan.

Ushbu qismda biz o'zbek va ingliz tillaridagi hayvon obrazlari ishtirok etgan maqollarni qiyosiy tahlil qilishga e'tibor qaratamiz. Bizning asosiy maqsadimiz ushbu ikki madaniyatda hayvon obrazlarining maqollar orqali qanday umumiy va farqli jihatlar bilan ifodalanishini o'rganishga qaratilgan. Maqolada uchta asosiy toifadagi maqollarni ko'rib chiqamiz: har ikki tilda ham hayvon obrazlari aynan saqlanib qolgan maqollar; bir xil ma'noni anglatuvchi, ammo turli hayvon obrazlari qo'llanilgan maqollar; va bir tilda hayvon obrazi bilan qo'llanilgan, ikkinchi tilda esa hayvon obrazisiz ekvivalenti mavjud bo'lgan maqollar. Bu tahlil orqali biz ikki xalqning madaniy qadriyatlari, tafakkur tarzi va til

xususiyatlari haqida xulosalarga ega bo‘lamiz. Keltirilgan fikrlarimizni isbotlash maqsadida quyida bir qator hayvon obrazi qo‘llanilgan ayrim ingliz va o‘zbek maqollarining tahlilini keltirib o‘tamiz.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi hayvon obrazlari qo‘llanilgan maqollarni tahlil qilganda bo‘ri, ot, qo‘y va it kabi hayvon obrazlarini boshqa hayvonlarga nisbatan ko‘proq uchratamiz. Bunga misol qilib ushbu maqollarni keltirishimiz mumkin:

1. Inglizcha: *Who's afraid of the big bad **wolf**?* O‘zbekcha: **Bo‘ri** qarisa, **itga** kulgi bo‘lar. [7]

2. Inglizcha: *Set the **wolf** to keep the **sheep**.* O‘zbekcha: **Bo‘ri** bor bo‘lsin desang, **qo‘y** but bo‘lmas. [7]

3. Inglizcha: *Half **horse** and half alligator.* O‘zbekcha: **Ot** tuz deydi, yigit — qiz. [2, 106-b.]

4. Inglizcha: *Two **dogs** strive for a bone, and third runs away with it.* O‘zbekcha: *Olgan – olganniki, **ot** – minganniki.* [3, 220-b.]

5. Inglizcha: *Let every **sheep** hang by its own shank.* O‘zbekcha: **Qo‘yni** ham o‘z oyog‘idan osadilar, **echkini** ham. [7]

6. Inglizcha: *A **dog** in the manger.* O‘zbekcha: *O‘zi yemas, **itga** bermas.* [7]

7. Inglizcha: *Give your food to the people and they will pat your head. Give your food to the **dogs**, and they will gnaw your head.* O‘zbekcha: *Elga bersang goshingni, Erlar silar boshingni. **Itga** bersang oshingni, **Itlar** g‘ajir boshingni.* [4, 162-b.]

Ba‘zi maqollarda aynan shu ma‘no kasb etadigan hayvon nomlari har doim ham berilavermaydi Bu esa ikkala tilning farqli xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. [5, 673-b.]

O‘zbek va ingliz tillaridagi maqollarni ulardagi hayvon obrazlarining qo‘llanilish xususiyatlariga ko‘ra uch toifaga ajratgan holda tahlil qilamiz. Bunday yondashuv bizga ikki madaniyatda hayvon obrazlariga bo‘lgan munosabatning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlashga yordam beradi:

1. Har ikki tilda ham hayvon obrazlari aynan saqlanib qolgan maqollar :

Bu toifadagi maqollar, o‘zbek va ingliz tillarida, ma’nolari jihatidan ham, ularni ifodalashda ishlatilgan hayvon obrazlari jihatidan ham deyarli bir xil bo‘ladi. Bu ko‘pincha hayvonlarning universal ramziy ma’noga ega ekanligidan yoki ikki madaniyat o‘rtasidagi madaniy o‘zaro ta’sirdan dalolat beradi.

1. Inglizcha: *Greedy as a wolf*. O‘zbekcha: **Bo‘rining** o‘zi to‘ysa ham, ko‘zi to‘ymas.

[7]

Ikkala maqol ham insonning to‘ymas nafsini, ochko‘zligini ifodalaydi. Ular odamning qancha narsaga ega bo‘lmasin, baribir ko‘proq narsa istashini, hech qachon qoniqmasligini ta’kidlaydi.

Bo‘ri (Wolf): Bu hayvon har ikki madaniyatda ham ochko‘zlik, yirtqichlik, shafqatsizlik va to‘ymas nafsning universal ramzi hisoblanadi. Bo‘rining ov paytida ortiqcha o‘lja talashishi yoki o‘ziga yetarlikdan ko‘proq narsa istashi kabi xususiyatlari insoniy ochko‘zlikka qiyos qilinadi. U doimo ko‘proq istovchi, qoniqmas tabiatga ega jonivor sifatida tasvirlanadi.

2. Inglizcha: *It is the last straw that breaks the camel's back*. O‘zbekcha: **Tuya** elakka kelganda oqsar. [7]

Ushbu maqollar, uzoq vaqt davomida barcha qiyinchiliklarga, bosimlarga chidab kelgan odam yoki tizim, hatto arziyas bir muammo tufayli ham butunlay qulashi mumkinligini ifodalaydi.

Tuya (Camel): Har ikki madaniyatda ham tuya chidamlilik, bardoshlilik va og‘ir yuklarni ko‘tarish qobiliyatining ramzi hisoblanadi. U cho‘l sharoitida uzoq masofalarni bosib o‘tishga qodir, lekin hatto eng bardoshli jonzotning ham o‘z chegarasi borligini ko‘rsatadi. Tuyaning belining sinishi yoki oqsay boshlashi insonning sabr kosasi to‘lganini, uning bardosh chegarasidan o‘tganini bildiradi.

3. Inglizcha: *Fatness is the right fit for a **ram***. O‘zbekcha: *Semizlikni **qo‘y** ko‘taradi*. [4, 163-b.]

Ikkala maqol ham “Har bir narsa o‘z tabiati va vazifasiga mos bo‘lishi kerak” degan mazmunga ega. Qo‘y qanchalik semiz bo‘lsa, bu yaxshi parvarish, sog‘lomlik belgisi hisoblanadi.

Ram/Sheep (Qo‘y/Qo‘chqor): Bu hayvon obrazi beozorlik, mo‘llik va barakani ifodalaydi. Qo‘ylarning semiz bo‘lishi ularning sog‘lomligini va qadrliligini anglatadi (go‘шти, juni uchun). Shuning uchun semizlik qo‘yga tabiiy va mos keladigan xususiyat sifatida ko‘riladi.

4. Inglizcha: *Like water off a **duck**'s back*. O‘zbekcha: *Dunyoni suv bossa, **o‘rdakka** nima g‘am*. [5, 674-b.]

Bu maqol ba‘zi odamlar atrofida sodir bo‘layotgan voqealardan, tanqid va muammolardan ta’sirlanmasligini, ularga nisbatan beparvo bo‘lib qolaverishini anglatadi.

O‘rdak (Duck): O‘rdakning patlari yog‘li va zich tuzilishga ega bo‘lib, ustki patlari suvni o‘tkazmaydi va uni o‘ziga singdirmaydi. Shu sababli o‘rdak suvda osongina suzadi, sovuq suvdan saqlanadi va tashqi muhit ta’siriga kamroq duch keladi. Aynan mana shu xususiyati orqali u beparvolik va tashvishga tushmaslik ramzi sifatida qo‘llaniladi. Bu obraz insonning ham tashqi muammolarga yengil qaraydigan, ulardan ta’sirlanmaydigan tabiatini anglatadi.

2. Bir xil ma'noni anglatuvchi, ammo turli hayvon obrazlari qo'llanilgan maqollar :

Bu toifadagi maqollar, o'zbek va ingliz tillarida, asosiy ma'nolari jihatidan bir-biriga mos keladi, ammo ularni ifodalash uchun boshqa hayvon obrazlaridan foydalaniladi. Bu madaniyatlar orasidagi farqli dunyoqarash, tabiiy muhit yoki tarixiy-madaniy kontekst bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

1. Inglizcha: *Can the **leopard** change his spots?* O'zbekcha: **Ilon** po'stini tashlagani bilan qilg'ini tashlamas. [2, 106-b.]

Ikkala maqol ham insonning tug'ma xususiyatlari, fe'l-atvori yoki yillar davomida shakllangan odatlarini o'zgartirishi juda qiyin, hatto imkonsiz ekanligini ifodalaydi. Tashqi ko'rinish o'zgarishi mumkin, ammo ichki mohiyat, tabiat o'zgarmas qoladi.

Leopard (Qoplon): Maqolning inglizchasida qoplonning dog'lari uning ajralmas va tug'ma xususiyati sifatida tasvirlangan. Bu dog'lar qoplonning o'ziga xosligi va o'zgarmas tabiatini bildiradi. Qoplon o'z dog'larini o'zgartira olmagan kabi, inson ham o'zining tub xususiyatlarini o'zgartira olmaydi.

Ilon (Snake): Maqolning o'zbekchasida ilon obrazi ishlatilgan. Ilon vaqti-vaqti bilan o'z po'stini (terisini) tashlab, yangi teriga ega bo'ladi. Bu tashqi o'zgarishni anglatadi. Ammo maqol shuni ta'kidlaydiki, ilonning tashqi ko'rinishi o'zgarsa ham, uning tabiatidagi "qiliq" (xulq, fe'l-atvor, zaharli bo'lishi kabi) o'zgarmaydi. Bu obraz insonning o'zini o'zgartirganga o'xshatishi mumkinligini, ammo asl tabiatining saqlanib qolishini ko'rsatadi.

2. Inglizcha: *One scabbed **sheep** infects the whole flock.* O'zbekcha: *Podada bitta tirraqi **ho'kiz** bo'lsa, Butun podani tirqiratadi.* [2, 106-b.]

Ikkala maqol ham bir guruh yoki jamiyatda birgina yomon kishi ham butun guruhga yomon ta'sir ko'rsatishi, tartibsizlik keltirib chiqarishi va hatto tarqalib ketishiga sabab

bo'lishi mumkinligini bildiradi. Ya'ni, bir kishining yomonligi butun jamoaga yoyilishi mumkin.

Scabbed sheep (Qo'tir qo'y): Ingliz tilidagi maqolda qo'tir kasalligi jismoniy infeksiya ramzi sifatida ishlatilgan. Kasal qo'yning butun podani zararlashi, birgina yomon narsaning boshqalarga ham yomon ta'siri bo'lishini ko'rsatadi.

Tirraqi ho'kiz (Troublesome ox): O'zbek tilidagi maqolda tirraqi (boshqalar bilan moslasha olmaydigan, betartib) ho'kiz obrazi ishlatilgan. Bunday ho'kiz podada tartibsizlik keltirib chiqarib, uni tarqatib yuborishi mumkin. Bu yerda salbiy ta'sir ko'proq tartibsizlik, noqulaylik va jamoaning birligini buzish ma'nosida keladi.

3. Inglizcha: *Two **dogs** strive for a bone, and third runs away with it.* O'zbekcha: *Olgan – olganniki, **ot** – minganniki.* [3, 220-b.]

Bu maqol ikki kishi o'zaro tortishib, bahslashib yoki raqobatlashib qolsa, oxir-oqibat foyda ularning o'ziga emas, balki uchinchi shaxsga nasib qilishi mumkinligini ifodalaydi. Maqol odamlarni keraksiz tortishuvlarga berilmaslikka, vaqt va energiyani imkoniyatdan foydalanib qolishga, natijaga erishish uchun harakat qilishga sarflashga undaydi. Chunki ba'zan "ustun kelish, haq bo'lib chiqish" ishtiyoqi bilan yoki biror bir narsani talashib, unga egalik qilish maqsadida ikki tomon bir-biri bilan bahslashadi, lekin uchinchi tomon bu vaziyatdan foydalanib, ikki tomon talashayotgan narsani o'ziniki qilib oladi.

Dogs (Itlar): Itlarning suyak talashib qolishi barchamizga tanish holat. Bu manzara shuni ko'rsatadiki, ikki it bir suyakka qattiq yopishib olib, u uchun tortishadigan bo'lsa, ularning butun diqqat-e'tibori o'sha tortishuvda bo'lib qoladi. Natijada ular atrofni ko'rmay qo'yadi. Ana shu paytda bir chetda poylab turgan uchinchi it — holatni kuzatib, eng qulay fursatda imkoniyatdan foydalanib, suyakni o'zi olib ketishini anglatadi.

Ot (Horse): O'zbek madaniyatida ot mulk, kuch, harakat erkinligi ramzi hisoblanadi. Xalq nazarida otga egalik qilishning o'zi kifoya emas — uni mina olish, qanday

boshqarishni bilish qobiliyati katta fazilat hisoblangan. Maqolda “ot – minganniki” deyish orqali shuni nazarda tutiladi: Imkoniyat hamisha tayyor turadi, ammo undan har kim ham foydalana olmaydi. Ya’ni, ot – uni mina oladigan kishiga nasib qiladi.

4. Inglizcha: *The **lion** is not so fierce as he is painted.* O‘zbekcha: *Qo‘rqoqqa ip **ilon** bo‘lib ko‘rinadi.* [7]

Har ikkala maqol ham umumiy holda shuni anglatadiki, ba'zan biror narsa tashqi ko'rinishi yoki atrofida g'illarning ularni tasvirlashi orqali asl holatidan ko'ra qo'rquinchliroq yoki murakkabroq bo'lib tuyuladi. Aslida esa u narsa ko'ringanidek bo'lmasligi mumkin.

Lion (Sher): Sher o'zining vahshiy va kuchli hayvon ekanligi bilan mashhur. Maqolda esa she'rdan ramziy ma'noda foydalanib, uning shu qadar qo'rquinchli bo'lmasligi mumkinligini, balki ko'proq u haqida aytiladigan hikoyalar yoki tasvirlar uni yanada daxshatliroq ko'rsatishini bildiradi. Bu, odamlarni tashqi tasviriga aldanmaslikka undaydi.

Ilon (Snake): Ilon odatda xavf, ko'zga ko'rinmas xatar kabi ma'nolarning timsoli bo'lib keladi. U jim yurishi, to'satdan paydo bo'lishi va zarar yetkazishi mumkin. Maqolda esa qo'rquqqa oddiy bir ip ham ilondek ko'rinadi deyish orqali qo'rquq odamga kichik narsalar ham ulkan bo'lib ko'rinishi mumkinligini ifodalaydi.

3. Bir tilda hayvon obrazi qo'llanilgan, ikkinchi tilda esa hayvon obrazisiz ekvivalenti mavjud bo'lgan maqollar :

1. Inglizcha: *You cannot sell the **cow** and drink the milk.* O‘zbekcha: *Qaysi butaga o‘t tushsa, o‘sha buta kuyar.* [7]

Ingliz tilidagi maqolda siz biror narsani (sigirni) sotib, keyin ham undan olinadigan foydani (sutni) ola olmasligingizni anglatadi. Bir vaqtning o'zida qimmatli narsani qo'ldan chiqargandan keyin undan keladigan foydani ham yo'qotgan bo'lasiz. Ya'ni, siz biror narsadan voz kechsangiz, u olib keladigan doimiy foydadan ham mahrum bo'lasiz.

Cow (Sigir): Sigir — baraka, doimiy foyda keltiruvchi hayvon hisoblanadi. Uning suti, bolasi, go'shti inson hayotida muhim o'rin tutadi. Bu yerda sigir siz ega bo'lgan va foyda keltiradigan har qanday narsaning umumiy timsoli bo'lib kelyapti.

Maqolning o'zbek tilidagi ekvivalenti “Har kim o‘z qilgan ishining natijasini ko‘radi” yoki “Har kim o‘zining qilgan ishi uchun javob beradi, oqibatini o‘zi tortadi” ma’nolariga yaqin.

2. Inglizcha: *One must howl with the **wolves***. O‘zbekcha: *Qo‘shning ko‘r bo‘lsa, ko‘zingni qis*. [7]

Ingliz tilidagi maqolda boshqa odamlar yoki guruhning urf-odatlariga, qoidalariga yoki talablariga moslashish, ularga qo'shilish kerakligini anglatadi. Agar siz biror guruhda bo'lsangiz, o'sha guruhning qonun-qoidalariga rioya qilishingiz kerak, aks holda sizni yaxshi qarshi olmasliklari yoki chetlatishlari mumkin. Bu, asosan, o'zingizni himoya qilish uchun ko'pchilikka qo'shilish zarurligini ta'kidlaydi. "Ularga qarshi chiqsangiz, qiyin ahvolga tushishingiz mumkin" degan ma'noda.

Wolves (Bo'rilar): Bo'rilar ko'pincha bir to'da bo'lib ov qiladigan hayvonlar hisoblanadi. Ular kuch, vahshiylik, birlik va o'z hududini himoya qilish timsolida ko'rsatiladi. Maqolda “howl with the wolves” (bo'rilar bilan birga uvillash) deyish orqali o'z to'dangizning yoki guruhingizning harakatlariga qo'shilishni, ularning talablariga, tizimiga moslashish kerakligini anglatadi.

O‘zbek tilidagi berilgan ekvivalentida “Qo‘shning ko‘r bo‘lsa, ko‘zingni qis” – bu maqol ham xuddi shunday ma’noni beradi: atrofingizdagi odamlarning kamchiliklari yoki yomon odatlarini ko‘rsangiz ham, ko‘rmaganga olasiz ya’ni ularga ko‘z yumasiz. O‘z xavfsizligingiz va muammoga yo‘liqmasligingiz uchun ularga qarshilik qilmaysiz. Ikkala maqol ham moslashuv, atrof-muhitga qarab harakat qilishni tavsiya qiladi.

3. Inglizcha: *A good **dog** deserves a good bone.* O‘zbekcha: *Yaxshiga ipak ilashur, yomonga tikan ilashur.* [2, 78-b.]

Ingliz tilidagi maqolda to‘g‘ridan to‘ri tarjima qilinganda yaxshi itga yaxshi suyak loyiq degan ma‘noni anglatadi, ya‘ni yaxshilik qilgan yoki yaxshi xulq-atvor ko‘rsatgan kishi yaxshi narsaga loyiq ekanligini ifodalaydi.

Maqolning o‘zbekcha ekvivalenti esa biroz kengaytirilgan va umumiyroq: “Yaxshiga ipak ilashur, yomonga tikan ilashur” — yaxshilik qilgan kishi mukofotlanadi, yomonlik qilgan kishi esa jazolanadi, degan ma‘noni bildiradi.

It egasiga sodiq bo‘lishi — odamning yaxshi xulq-atvori yoki yaxshilik qilishi timsolida, suyak bilan mukofotlanishi esa yaxshilik qilgan kishining mukofot topishi, yaxshilikning natijasi timsolida qo‘llanilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maqollar til va madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib, xalqning dunyoqarashi va urf-odatlarini aks ettiradi. Tarjima jarayonida maqollarning ma‘nosini saqlash va ularni boshqa tilga tarjima qilganda to‘g‘ri ekvivalentni topish muhim ahamiyat kasb qiladi. Ingliz tilidagi hayvon obrazi qo‘llanilgan maqollarning o‘zbek tilidagi ekvivalentini aniqlash faqat so‘zma-so‘z tarjima bilan cheklanmaydi, bu jarayon har ikki madaniyatni chuqur o‘rganishni, maqolning asl ma‘nosini tushunishni va u qanday vaziyatlarda qo‘llanilishini bilishni talab qiladi. Shu bilan birga, bu yondashuv har ikki tilning boyligini, xalqning dunyoqarashi va qadriyatlarini yaxshiroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. [Abdumurodov D., Toshkanova M. Maqol va matallar ta'rif va ularning ahamiyati. Journal of Education, Ethics and Value. Vol. 3, No. 11, 2024. –274-277 b.](#)
2. Axmedova U., Ermetova J. Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari. Urganch 2014. _ 107 b.
3. [Pardayeva Z. English proverbs with numeral component and their uzbek equivalents. – 219-221 b.](#)
4. [Po'latova D., Ro'zimaxmatova M., Nurullayeva H., Ro'ziboyeva B. The wisdom of uzbek proverbs for work. Лучшие интеллектуальные исследования. Часть-34 Том-1_ Декабрь -2024. – 161-164 b.](#)
5. [Toirova U. Maqollarda zoosemizmning ingliz va o'zbek tillaridagi talqini. Til, adabiyot, tarjima adabiy tanqidchilik xalqaro ilmiy forumi: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2021-03-25. – 672-675 b.](#)
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Maqol>
7. <https://maqollar.uz/>